1991-yildan chiqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro‘yxatga olingan.

2019-yil. 10–11-sonlar.

Bosh muharrir
Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay’ati:
Sherzod SHERMATOV
Dilshod KENJAYEV
Maqsudxon YO‘LDOSHEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Nargiza RAHMONQULOVA
Sirojiddin SAYYID
Mamatqul JO‘RAYEV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Lutfullo JO‘RAYEV
(bosh muharrir o‘rinbosari)
Nilufar Namozova

Jamoatchilik kengashi:
Muhammadjon ALIYEV
Ergesh ABDUVALITOV
Manzura DADAXO‘JAYEVA
Ehson TURDIQULOV

Sahifalovchilar:
Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas’ul:
Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Emma TOROSYAN

Tahririyat manzili:
100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko‘chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10,
(71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko‘chirib bosilgan maqolalar «Til va adabiyot ta’limi»dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 03.12.2019-yilda topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog‘oz bichimi 60x84 1/8. Shartli bosma tabog‘i 6,0. «Times» garniturasi. 10, 11 kegl. «EKO TEXTILE PRODUKT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko‘chasi 32-uy. Buyurtma ___ Adadi 3120 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

MUNDARIJA

JONAJON O‘ZBEKISTONIM, MANGU BO‘L OMON!

Nigora Uralova. Mutolaa – qalb xastaligiga shifo ... 3
Abdusattor Sodiqov. Ingliz tili sabog‘i – kundalik ishimiz ... 7

DARS – MUQADDAS

Sadoqat Uraqova. Yordamchi so‘zlar ... 9

ILG‘OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Dildor Nurmuxamedova. Kreativ fikrlashda ta’lim texnologiyalarining o‘rni ... 11
Nilufar Rahmatova. Ona tili va adabiyot fanlarini o‘qitishda didaktik o‘yinlarning o‘rni ... 14
Zilola Ziyaviddinova. Ona tili darslarida taqqoslash metodidan foydalanish ... 16
Lola Iliyeva, Nozima Majidova. Chet tillarni o‘rganish-o‘rgatishda zamonaviy texnologiyalar ... 18
Ruslan Dospanov, Janat Sarsenova. Smart board as an innovative teaching tool in a modern english class ... 20
Shahnoza Xo‘jayeva. Chet tilni o‘qitishda audio-vizual ta’lim texnologiyalari ... 23

METODIK TAVSIYA

Boqijon To‘xliyev, Xurshida Xamrakulova, Shahnoza Ergasheva. “Uch og‘a-ini botirlar” ertagini tahlil qilish usullari ... 24

TAHLIL

Azamat Uralov. Morfemalarning kelib chiqishi va boyish manbalari ... 27
Gulnoz Ernazarova. O‘zbek xalq og‘zaki va ilk yozma adabiyotida meditativ lirika unsurlari ... 30
Baxtiyor Xolmuhamedov. Leksemalashuv va uning so‘z turkumlari shaklida namoyon bo‘lishi ... 33
Muxlisa Sabirova. Mediamatn va uning pragmalingvistik talqini ... 35
Erkin Musurmanov. O‘zbek–xitoy mifologiyasida maxluq-ayollar obrazining qiyosiy tahlili ... 37
Dilrabo Yusufova. Muloqotda nutq ta’sirchanligini ta’minlovchi omillar ... 38

TADQIQOTLAR

Hilola Ismailova, Mohizar Sobirova. Gapning til tizimida ifodalanishi ... 41
Muhammadjon Solijonov. Til – millatning madaniy belgisi ... 43
Nodira Adizova. Buxoro tumani toponimlarining morfem xususiyatlari ... 45
Umid Xo‘jamqulov. Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri: mazmun va shakl ... 47
Komiljon Hamrayev. Hikoyada sarlavha poetikasi ... 49
Abdurashid Askarov. Sa’duddin Taftazoniyning arab tili balog‘at ilmida tutgan o‘rni ... 52
Nosir Rajabov. Ingliz va o‘zbek tillarida unli fonemalarning ekvivalentlik darajasi ... 54
Islom Minniqulov. Tilshunoslikda shart munosabatlari ifodalanishining semantik tasnif muammolari ... 57
Inamjan Madiyarov. Tez aytish va topishmoqlar – nutq o‘stirish vositasi ... 59

KICHIK TADQIQOT

Olim Usmonov. Abdulla Oripov she’rlaridagi milliy o‘ziga xoslik ... 62
Tolib Najmiddinov. Borxes ijodida Sharq mavzusi ... 65
Xurshida Narxodjayeva. O‘zbek terminologik leksikografiyasi talqini va uni tartibga solish yuzasidan mulohazalar ... 65
Abdulla Xudayqulov. Ingliz o‘zlashmalarining o‘zbek tilida ifodalanishida yozma manbalarning o‘rni ... 66
Mohigul Fozilova. Insoniylik timsoli ... 68
Iroda Mirzayeva. Problems of using modern information technologies in teaching foreign languages ... 69
Nosirjon Uluqov, Kamola Hamidova. “Hudud ul-olam” – o‘zbek tili toponimiyasining noyob tarixiy manbasi ... 70
Abdulaziz Qosimov. Frans kafka hikoyalarida ota obrazi ... 72

ЛУЧШИЙ УЧИТЕЛЬ-ФИЛОЛОГ

Томила Лассов. Toк-шоу, Репортаж, Следы, XXI век ... 73
Альбина Салохиддинова. Как выразить доброе, ласковое отношение к кому-либо или чему-либо? ... 76
Кодиржон Носиров. Как активизировать литературное чтение? ... 77
Екатерина Аминова. Метод описания в разговорной практике при изучении английского как второго иностранного языка ... 79
Мадинабону Ахмедова. Анализ романа М.Булгакова «Мастер и Маргарита» ... 82
Гуллола Абдуллаева. Til – dil kaliti (Язык – ключ души) ... 83
Снежана Кутлуева. Ю.Я.Яковлев «Рыцарь Вася» ... 85

ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

Ирина Чергинская. Учет предписывающего характера пословиц при усвоении условных отношений между частями сложноподчиненного предложения ... 87
Тимур Дилшодбеков. Организация внеаудиторной самостоятельной работы курсантов по русскому языку на основе текстов ... 89
Сабина Смирнова. Актуальные вопросы развития критического мышления в учебном процессе высшего образовательного учреждения ... 92

ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ

Елена Лагай. Об обучении студентов конспектированию научного монологического высказывания ... 95
Шоира Курбанова. Модель стратегии дальтон-плана в обучении русскому языку в иноязычных группах вузов ... 97

ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Надежда Шакурбанова. Внутренняя организация контаминированных типов полипредикативных синтаксических конструкций в повествовательном типе текстов ... 99
Бахтиёр Гафуров. Влияние фоностилистики на изучение русского, узбекского и английского языков ... 102

МАСТЕРСТВО ПЕРЕВОДА

Тулкин Сайдалиев. О русских переводах романа Абдуллы Кадыри «Скорпион из алтаря» ... 103

ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Саодат Магдиева. Метамифологическая художественная реальность в пьесе Мустая Карима «Не бросай огонь, Прометей!» ... 105
Зулхумор Эгамназарова. История зарождения русской сатиры как национального феномена ... 106
Хилола Юнусова. Стилистические особенности романа А.Иличевского «Матисс» ... 110
Дмитрий Пупонин. Проблема героя в романе-фэнтези С.Логинова «Многорукий бог далайна» ... 112
Дилдора Назарова. Мотивы литературы суфизма и духовно-нравственные идеи в лирике Джамала Камала ... 116

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Фахриддин Абдурахманов. Трансформационно-дистрибутивные свойства трехактантных глаголов современного русского языка ... 118

TIL VA ADABIYOT TA’LIMI — **jurnali**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya va Pedagogika fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashr.

Boqijon TO‘XLIYEV,
filologiya fanlari doktori, professor;
Xurshida XAMRAKULOVA,
filologiya fanlari doktori;
Shahnoza ERGASHEVA,
filologiya fanlari nomzodi

“UCH OG‘A-INI BOTIRLAR” ERTAGINI TAHLIL QILISH USULLARI

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari “Adabiyot” dasturidan o‘rin olgan asarlar o‘quvchilarda fan bo‘yicha davlat ta’lim standartida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash, ularda tayanch hamda fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qilishi barobarida kitobxonlik madaniyatini ham shakllantirishi lozim. Bu maqsad va vazifalarni o‘quvchilarga asarni o‘qitish, sujeti bilan tanishtirish bilangina amalga oshirib bo‘lmaydi. Maktabda o‘rgatiladigan har bir asar o‘quv tahliliga tortilsa, o‘quvchi yozuvchining maqsad-muddaosini anglasagina undan chinakam bahra oladi, uning badiiy-estetik didi shakllanadi. Shunday ekan, “Adabiyot” darslarida o‘quvchilarni badiiy asarni tahlil va talqin qilishga o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalq og‘zaki ijodi namunalarining sujeti qiziqarli, tili ravon va sodda bo‘lganligi tufayli o‘quvchilar qiziqish bilan o‘rganadilar. Biroq ularni tahlil qilish jarayonida o‘qituvchi asarda ifoda etilgan voqea-hodisa va kechinmalarni xalqimiz turmush tarzi, madaniyati, urf-odatlari bilan bog‘lamasa, darsning ta’limiy maqsadi amalga oshmaydi, kutilgan samaraga erishib bo‘lmaydi.

5-sinf “Adabiyot” fani o‘quv dasturidan “Uch og‘a-ini botirlar” ertagi o‘rin olgan. Ushbu ertak o‘quvchilarga juda katta ma’naviy ozuqa beradi.

Otalar va bolalar muammolari hamda munosabatlariga bag‘ishlangan ko‘plab badiiy asarlar mavjud bo‘lib, otalar va farzandlar o‘rtasida ijtimoiy munosabatlarning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi fojiaga, muammolarga sabab bo‘lishi adabiyotshunoslikda alohida tadqiq etilgan. “Uch og‘a-ini botirlar” ertagi ana shunday muammolarning oldini olish, yosh avlodni ota-onaga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatli. Ertakdagi har bir jumla, har bir so‘zda xalq donoligi mujassam.

Odatda, ertaklar “Bor ekan-da, yo‘q ekan...” deb boshlanadi. O‘quvchiga asardagi voqealar hayotiy va xayoliy uydirmalardan iboratligi shu so‘zlarda aks etganligini ta’kidlash lozim. “Boy ham emas ekan, kambag‘al ham emas ekan” jumlasi asar qahramoni – cholning o‘rtahol toifadan ekanligini anglatadi. Bu bejiz emas. Boshqa ijtimoiy qatlamni kamsitmagan holda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida o‘rtahol qatlam asosiy o‘rin tutishini aytib o‘tish kerak.

Ertak qahramonlari ismi bilan atalmaganligida ham ramziy ma’no bor. Garchi bir o‘rinda chol farzandlariga “Yaxshi ot qo‘ydim”, desa-da, biror o‘rinda chol va farzandlarining ismi aytilmaydi. Negaki, erkak kishining sifatlari ismi bilan belgilanmaydi.

Qahramonlar ta’rif-tavsifida saj’ usulidan foydalanilganligi asarning o‘quvchi xotirasida ko‘proq saqlanishini ta’minlaydi. Ertakni o‘qish davomida “uchovi ham o‘qigan, oq-u qorani tanigan, yuzlari oyday, o‘zlari toyday, yomon bilan yurmagan, yomon joyda turmagan” sifatlari bilan og‘a-inilarning komillik sifatlariga ega bo‘lganliklariga ishora qilinadi. Farzandlar yoshi orasidagi muvofiqlik ham tibbiy jihatdan xalq donoligini o‘zida ifodalagan. Zero, hozirgi tibbiyot farzandlar orasidagi yosh farqi uch yildan kam bo‘lmasligini ma’qullaydi.

Chol obrazi misolida donishmand insonning hayotiy tajribalari ifoda etiladi. Cholning har bir xatti-harakatida xalq donoligining muayyan qirralari namoyon bo‘ladi. Xususan, cholning o‘g‘illari peshonasini silashida ularga bo‘lgan mehri, ishonchi va samimiy munosabati ko‘rinadi. Qolaversa, xalqimizda taqdir peshonada aks etadi, degan qarash mavjud. Shu ma’noda peshonaning silanishi taqdir yo‘lining yorug‘ va omadli bo‘lishidan dalolat beradi.

Chol o‘g‘illariga nasihati orqali otalarning farzand oldidagi burchlarini uqtirgandek bo‘ladi: “...o‘zimdan keyin baxtsiz bo‘lib qolmanglar deb, sizlarni o‘qitdim. Yaxshi ot qo‘ydim. To‘y qildim, voyaga yetkazdim”.

E’tibor berilsa, chol farzandlariga zarur tarbiyaning barchasini bergan. Sog‘lom vujud – ruhan va jismonan yetuk insonga xos. Yarog‘ ishlatishga usta bo‘lish – yigitning fazilati. Chin erkak qo‘rqoq bo‘lmaydi, botirlik va dovyuraklik unga xos. Farzandlariga atagan ne’matlarida ularning hayotida ro‘y beradigan voqealarni oldindan ko‘ra-bila olishi cholning oddiy ota emas, balki donishmand inson ekanligini ko‘rsatadi. Chol xalq og‘zaki ijodida farzandlarini muayyan maqsadga yo‘llab turuvchi otalar obrazining yana bir go‘zal namunasidir.

Garchi ota farzandlariga oq yo‘l tilab, ularning keyingi taqdiriga daxl qilmayotgandek ko‘rinsa ham, aslida uning taqdiri farzandlariniki bilan birligini sezish qiyin emas.

Botirlarning sinchkovligi podshoh dasturxonidagi ne’matlarga bergan bahosida ham namoyon bo‘ladi. Hatto ular o‘rdaga nima uchun chaqirilgani-yu ularni kimlar kuzatayotganini ham bilishadi. Shuning uchun to‘ng‘ich botir: “Podshoh bizni bu yerga o‘rda voqeasi bilan chaqirgan. Albatta, bizdan savol so‘rar, nima deymiz?” – deb maslahat soladi. To‘ng‘ich botirning nutqidagi “nima deymiz?” savoli kengashishga taklif-

dan tashqari ukalarini o‘zi bilan teng ko‘rib munosabat qilayotganini ham bildirib turadi. Aka-ukalarning o‘zaro suhbatida xalqimizga xos bo‘lgan kattalarga hurmat, kichiklarga izzat namoyon bo‘ladi. O‘rtancha botirning “Bu voqeaga aralashgan bo‘lsak, aytmoq lozim”, degan gapidan aka-ukalar uch kunlik safar davomida biror sarguzashtga guvoh bo‘lganlarini bilishlari, ayni damda ular o‘zlarining kuzatayotganliklarini sezib turganliklari anglashiladi. Savol tug‘iladi: nega aka-ukalar o‘z sarguzashtlarini ayni vaziyatda bayon qilishadi? Buning asosli sabablari bor: xotirjam suhbatlashishga qulay fursat tug‘ilgani uchun; otaning “maqtanchoq bo‘lmang” degan nasihatiga amal qilganliklari uchun; suhbat asnosida o‘z sarguzashtlaridan podshohni shu yo‘l bilan ogoh qilishni ma’qul topganlari uchun bayon etishadi.

Podshohning kuyov qilish taklifiga ham to‘ng‘ich botir: “Bizlar podshoh emasmiz. Otamiz ham boy emas, Sizning davlatingiz podshohlik bilan topilgan, biz qo‘l kuchi bilan tarbiya topganmiz. Elimiz bir bo‘lsa ham, tarbiyamiz boshqa. Qanday bo‘lar ekan?” – deya andisha bilan fikr bildiradiki, bunda ukalar oldidagi burch va mas’uliyat ham akaning ana shunday javob qaytarishini talab qiladi.

Ertakda kiritma hikoya sifatida “To‘ti” hikoyasi keltirilgan. Hikoyaning mazmuniga lafzda turish insoniylikning asl sharti ekanligi singdirilgan. Chunki insonni ulug‘laydigan sifatlardan biri ham uning lafzi hisoblanadi. Kenja botir hikoya orqali vazirni tekshirishga ham ishora qiladiki, ziyrak podshoh buni to‘g‘ri ilg‘ab oladi.

Ertakni o‘quvchilarga tushuntirish jarayonida nimalarga e’tibor qaratilishi kerak? Bu jarayonda “Ertaklar – yaxshilikka yetaklar” degan hikmatli fikr o‘quvchilarga singdirilishi darkor. Negaki, o‘zbek xalq ertaklari boshqa xalq ertaklaridan farqli ravishda (masalan, “Bo‘g‘irsoq” rus xalq ertagidan) tragik xulosa bilan yakunlanmaydi. Shu jihati bilan xalq ertaklari o‘quvchilarda optimistik kayfiyatni uyg‘otadi.

Fan dasturida ertakni o‘rganish uchun uch soat ajratilgan bo‘lib, bu vaqt davomida ertak matni ustida ishlash, unda xalq badiiy dahosi, fantaziyasining yorqin namoyon bo‘lishi, botirlarga xos ezgu ma’naviy sifatlarning ulug‘lanishi o‘quvchilarga tushuntirilishi kerak.

Mavzuni o‘rganish uchun ajratilgan 1–2-soatlarda o‘quvchilarni ertak matni bilan tanishtirish barobarida mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar ham berib boriladi. Savol va topshiriqlar turli pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda berilsa, o‘quvchilar uchun ta’sirchan va qiziqarli bo‘lishi ta’minlanadi.

1-topshiriq. Donishmand chol tilidan quyidagi savol audio va slayd tarzida o‘quvchilar e’tiboriga havola qilinishi mumkin: **“Uch” raqami bilan bog‘liq nimalarni bilasiz?**

O‘quvchilar taxminan quyidagi javoblarni berishlari mumkin:

– uch – nafaqat raqam, balki “uchmoq” fe’li *(omonim so‘z);*

– uch – narsa-predmetning boshlanish qismi – uchi;

– “Uch baqaloq” filmi bor;

– hayotda ko‘p narsalarning, xatti-harakatlarning uch marta takrorlanishi, masalan, qo‘lni uch marta yuvish...

Yoki quyidagi she’rni o‘qish mumkin:

Bir, ikki, uch deyman,
Uchdan qolgan puch deyman.
Valijon a’lo o‘qir,
Besh bahosi g‘uj deyman.
Darsga yalqov Teshaga
Nuqul ikki, uch deyman.
Yumush qilgan dastyorni
Mehnatkash, serkuch deyman.
So‘kong‘ichning tiliga
Garmdori, murch deyman.
Salom bergan bolani
Rahmat aytib, quch deyman.

(Hamidulla Yoqubov)

Ertak matnining ma’lum qismi bilan tanishtirilgach, o‘qituvchi yana o‘quvchilar diqqatini ekranga qaratadi. Ekranda quyidagi matnlar va ularga mos ravishda qahramonlarning tasvirlari namoyish etiladi.

2-topshiriq. *Ertakda uch raqami bilan bog‘liq quyidagi hodisalar mavjud:*

1. Cholning uch nafar farzandi bor – to‘ng‘ich botir, o‘rtancha botir, kenja botir *(botirlarning rasmlari namoyish etiladi).*

2. Chol tarbiyada quyidagi uch amalga rioya qiladi:

a) sog‘lom vujudli qilib o‘stiradi;
b) yarog‘ bilan tanishtiradi;
d) qo‘rqitmay, botir qilib tarbiyalaydi.

3. Chol safarga otlangan o‘g‘illariga uchta nasihat qiladi:

a) to‘g‘ri bo‘ling – bexavotir bo‘lasiz;
b) maqtanchoq bo‘lmang – xijolat tortmaysiz;
d) dangasalik qilmang – baxtsiz bo‘lmaysiz.

4. Chol farzandlariga safarga chiqish uchun uchta ot tayyorlab qo‘yadi:

a) qora toy;
b) saman toy (och malla, sarg‘ish, somonrang ot);
d) ko‘k toy.

3-topshiriq. O‘quvchilar ertak matni bilan to‘liq tanishib bo‘lgach, monitorda donishmand chol obrazi namoyon bo‘ladi va o‘quvchilardan ertakda uch raqami bilan bog‘liq yana qaysi voqealarga e’tibor qaratganlarini so‘raydi. O‘quvchilar taxminan quyidagi javoblarni beradilar:

– uch aka-uka va podshoning uch qizi;
– mehmondorchilikda bildirilgan uch xil fikr;
– to‘tining ona yurtida uch kun turishi;
– to‘ti bilan bog‘liq uch dona olma;
– aka-ukalarning uch kunlik yo‘l safari.

4-topshiriq. Monitorda donishmand chol namoyon bo‘ladi va o‘quvchilarni fikrlashga undovchi savollar bilan murojaat qiladi:

1. Sizningcha, nima uchun uch raqami bilan bog‘liq hodisalar ertakning bir necha o‘rnida uchradi?

Javob: *Xalqimiz ayrim raqamlarni xosiyatli deb biladi va ko‘p ishlatadi. Masalan, 3, 7, 40 singari. Ertak “Uch og‘a-ini botirlar” deb nomlanganligi sababli undagi voqea-hodisalar bevosita shu raqamga bog‘lanadi va kompozitsion butunlik hosil qiladi.*

2. O‘g‘illarimga uchta nasihat berganimdan so‘ng “bundan boshqasini o‘zingiz biling”, deb aytdim. Siz bu gapimni qanday tushundingiz?

Javob: *Hamisha har yerda aql-idrok va fahm-farosatni ishlatish kerakligini tushundik.*

3. Men o‘g‘illarimga yana uchta nasihat qildim. O‘sha nasihatni kitobdan topib o‘qing.

Javob:

a) baxtingiz yo‘lda, topib olmoq uchun dunyoni ko‘rgani yo‘lga chiqing;

b) dunyoni tanimay dunyo kishisi bo‘lmaysiz;

d) baxt qushini ushlamoq uchun baxt oviga chiqing).

“Uch og‘a-ini botirlar” ertagi fanlararo integratsiyani ta’minlash uchun ham manba bo‘la oladi. 5-topshiriqni ayni maqsadga yo‘naltirish mumkin.

5-topshiriq. O‘quvchilar o‘qituvchi yordamida donishmand cholga quyidagi savollarni berish va javob olish orqali ot haqidagi tasavvurlarini kengaytirishlari mumkin:

1-savol. Nima uchun yigitlarga bir xil rangdagi otlarni emas, har xil rangdagi otlarni tanladingiz? Siz ranglarni qanday tushuntirasiz?

Cholning javobi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

– Men farzandlarimga eng yaxshi otlarni berdim. ***Qora ot*** *– otlarning eng qo‘rqmasi, yaxshi chopag‘oni va tishlong‘ichi. Ukalarini xavf-u xatardan saqlasin deb uni to‘ng‘ich farzandimga berdim.* ***Samanning*** *manglayida yoki to‘rttala oyog‘ida oq qashqasi bo‘lsa, u otlarning eng yaxshisi va abjiri, sadoqatlisi bo‘ladi. Uni o‘rtancha o‘g‘limga berdim.* ***Ko‘k otning*** *agar dumi qora bo‘lsa, otlarning eng yaxshisi bo‘ladi. Uni g‘irko‘k ham deyishadi. Sakraganda 40 metrgacha sakraydi. Uni kenja o‘g‘limga berdim.*

Darhaqiqat, **qora rang –** ulug‘vorlik timsoli. Qora otning katta akaga atalishi ham akaning ukalar oldida salobatga ega bo‘lishi bilan bog‘liq. Yana aka bu ot bilan sherga qarshi kurashadi. Sherning asosiy hamlasi tishlashi bilan bog‘liq. Qora ot tishlong‘ich ot bo‘lib, u sherning hamlasini qaytarishga qodir.

Saman otning sifatlaridan biri egasiga sadoqatli bo‘lishidir. Uning o‘rtancha farzandga berilishi ham ramziylik kasb etgan. U uka sifatida akaga, aka sifatida ukaga sadoqatini namoyish qilomog‘i lozim. Chunki katta akada ukalar bor, kichik ukada akalar bor. O‘rtancha o‘g‘ilda ham aka, ham uka bor. Shu ma’noda u tarozining ikki pallasini teng tutishi lozim.

Ko‘k ot xalq dostonlarida G‘irko‘k deb sifatlanadi. Otning bu turi eng chopqir hisoblanadi. Kichik o‘g‘il bir kechada qaroqchilar bilan olishib, podsho o‘rdasidan zarur narsalarni olib, akalar oldiga qaytib kela olishi uchun otining chopqirligi zarur edi. Ko‘k rang tinchlik ramzi hamdir. Kenja botir bir kechada shuncha ishni bir o‘zi bajarib, yomonlarning jazosini beradi. Ham podshohlikning, ham yurtning tinchligini saqlab qoladi.

Ota farzandlariga uchta otni tayyorlab qo‘yadiki, bunda ham ramziy ma’no borligi anglashiladi.

2-savol: Nega farzandlaringizga toylarni berdingiz?

Cholning javobi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

– Otlar yoshiga ko‘ra bir necha nom bilan ataladi:

qulun – yangi tug‘ilgan ot (yangi tug‘ilgan qulun yigirma kun davomida yungini tashlab yangi yung chiqaradi. Bu davrda qulun qora quloq deb ataladi);

yanoq – bir yoshgacha bo‘lgan ot;

toy – ikki yoshgacha bo‘lgan ot;

g‘o‘non – ikki-uch yashar ayg‘ir;

do‘non – to‘rt yoshli ot.

Epchillik bilan xatardan saqlashi va manzilga tez olib borishi uchun o‘g‘illarimga toylarni tanlab berdim. Toylar hali hech kim tomonidan minilmagan bo‘ladi. O‘g‘illarim ularni o‘zlariga moslashtirib olishlari uchun ataylab tanladim.

Darhaqiqat, toy – hali hech kimsa minmagan ot. Bu otlarning birinchi egasi og‘a-inilar. Har bir toy rangiga qarab sifatlari turlanib boradi. Eng muhimi, ota tanlagan har bir ot otlarning eng yaxshisi hisoblanadi. Buni xalq dostonlarida tasvirlangan otlar misolida ko‘rish mumkin. Hatto otlarning turli-tuman fe’l-atvorlari maxsus sinchilarni talab qilishi ham tabiiy holdir.

Ushbu savol-javoblardan keyin o‘quvchilar bilan otlar haqida qisqa suhbat qurish tavsiya etiladi. Suhbat davomida ot qadimdan jasur yigitlar – botirlarning eng yaqin do‘sti va yo‘ldoshi bo‘lganligi, xalq og‘zaki ijodi namunalarida otlar xuddi insonlar kabi tasvirlangani, ularga nom qo‘yilgani (G‘irot, Boychibor, Jiyronqush va hokazo), ota-bobolarimiz bu jonivorni e’zozlashgani xususida fikr yuritiladi. Shuningdek, momolarimiz ham chavandozlikda yigitlardan qolishmaganligi, Oybarchin ot chopishda, temuriy malikalar chavgon o‘yinida mohir bo‘lganliklari qayd etiladi.

6-topshiriq. Mashg‘ulot jarayonida o‘quvchilarning botirlar bilan suhbatini ham tashkillashtirish mumkin. O‘quvchilar botirlarga taxminan quyidagi savol bilan murojaat qiladilar:

1. Nima uchun navbatchilikda ro‘y bergan hodisalarni bir-biringizdan sir saqladingiz?

Javob: *Aka-ukalarimiz xavotirga tushmasligi, tinch orom olishlari uchun. Bu haqida ertakning to‘la matnini “O‘zbek xalq ertaklari”dan o‘qisangiz bilib olasiz.*

O‘z navbatida, donishmand chol o‘quvchilarga quyidagi savollarni berishi mumkin:

1. ***O‘g‘illarim safari davomida o‘z tarbiyasidagi uchta jihatga amal qilishdimi? Buni qayerdan bildingiz?***

Javob: *Baquvvat ekanini sher, ajdar, qirq qaroqchiga yengilmaganidan; yarog‘ ishlatishga mohir ekanini ularning jang qilishidan; botir ekanini ularning har biri bir dushman bilan yakkama-yakka jang qilganidan bildik.*

O‘qituvchi berilgan topshiriqlarni sinf o‘quvchilari egallagan bilim, ko‘nikma va malakalaridan kelib chiqib to‘ldirishi, o‘zgartirishi mumkin.

Adabiyot o‘qitishdan maqsad o‘quvchilar qalbida ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg‘otishdir. Albatta, bu maqsad badiiy asarlarni o‘qish va uqish orqali amalga oshiriladi. Adabiyot o‘qituvchisi badiiy asarni faqat o‘qitish bilan cheklansa, maqsad-muddaoga erisha olmasligi aniq. Qachonki asar tahlil qilinsa, uning mohiyati anglansa, bir so‘z bilan aytganda, uqilsa, shundagina kitobxon o‘quvchini tarbiyalagan bo‘lamiz.